



The role of Uzbekistan in regional security and cooperation in Central Asia

Shukhratjon KHAYDARALIYEV¹

Namangan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2023
Received in revised form
15 May 2023
Accepted 25 May 2023
Available online
15 June 2023

Keywords:

democracy,
peace,
interests,
strategy,
values,
external factor,
neighborhood.

ABSTRACT

The article analyzes the specific features of regional security and cooperation in Central Asia. Also, conclusions and suggestions were given on the importance of the role of Uzbekistan in ensuring regional security and cooperation in Central Asia.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss4/S-pp82-86>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

O'zbekistonning markaziy osiyodagi mintaqaviy xavfsizlik va hamkorlikda tutgan o'rnini

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

demokratiya,
tinchlik,
manfaatlar,
strategiya,
qadriyatlar,
tashqi omil,
qo'shnihilik.

Maqolada Markaziy Osiyoda minataqaviy xavfsizlik va hamkorlikning o'ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan. Shuningdek, Markaziy Osiyoda minataqaviy xavfsizlik va hamkorlikni ta'minlashda O'zbekistonning o'rnini muhimligi bo'yicha ulosa va takliflar berilgan.

¹ Researcher, Namangan State University.

Роль Узбекистана в региональной безопасности и сотрудничестве в Центральной Азии

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

демократия,
мир,
интересы,
стратегия,
ценности,
внешний фактор,
соседство.

В статье анализируются особенности региональной безопасности и сотрудничества в Центральной Азии. Также были даны выводы и предложения о значении роли Узбекистана в обеспечении региональной безопасности и сотрудничества в Центральной Азии.

Demokratik rivojlanish yo'lini tanlagan har qanday jamiyatda iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-ma'naviy asoslarni takomillashtirish bilan bir vaqtda siyosiy jarayonlarni ham yuqori bosqichga ko'tarish talabi yetakchilik qiladi.

Davlat va jamiyatning barqaror taraqqiyotini belgilaydigan siyosiy jarayonlar o'z-o'zidan shu mamlakat ichki va tashqi omillari bilan bevosita bog'liqdir. Aynan shu omillar ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etmaguncha, rivojlanmaguncha, inson fenomeni, uning taqdiri, milliy manfaatlar, milliy va diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik va hamjihatlik masalalari bir yoqlama, yoki bo'lmasa, yuzaki qarashlar girdobida qolib ketadi. Shu ma'noda O'zbekiston jamiyatida ham mintaqaviy masalalarni rivojlantirish, o'zaro qo'shnichilik aloqalarini rivojlantirish, bir makon – mushtarak maqsad sari qadriyatlar va manfaatlar yagonaligini e'tirof etish borasida oxirgi besh yillikda Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan samarali va keng qamrovli hamkorlik aloqalariga katta e'tibor qaratildi.

Davlatimiz ijtimoiy-siyosiy hayoti uchun muhim hujjat – 2017-yil 7-fevralda tasdiqlangan “2017–2021-yillarda O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi”ning “chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar”i belgilab berilgan 5.2-bandida aynan tashqi siyosat masalasi – “O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish”[1] tamoyili o'z aksini topdi.

Strategiya doirasida olib qaraydigan bo'lsak, 2017-yilning noyabr oyida mamlakatimizda, Samarqand shahrida BMTning sha'feligida tashkil etilgan “Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta'minlash” masalalariga qaratilgan xalqaro doiradagi konferensiyada ham mintaqada xavfsizlik masalalari, ijtimoiy-madaniy va siyosiy jabhalarda o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish va mustahkamlash borasida strategik muhim dasturlar qabul qilinadi.

Bu boradagi uchrashuvlar, ahdlashuv memorandumlari, bir so'z bilan aytganda, siyosiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan yuqori darajadagi uchrashuvlardan biri 2018-yilning mart oyida mamlakatimiz Prezidenti, ayni bu singari uzoq muddatli strategik kelishuvlar bunyodkori Shavkat Mirziyoyevning bevosita tashabbusi bilan Qozog'istonning Ostona shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining birinchi maslahat uchrashuvi tashkil etiladi. Ayni bu singari maslahat uchrashuvlari, doimiy ravishda bo'lib turgan hamkorlik kelishuvlari va memorandumlar o'z samarasini bermasdan qolmadi. Xususan, o'sha yilning iyun oyida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan “Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash” rezolyusiyasi

qabul qilindi. Bu o'z-o'zidan mintaqa mamlakatlari o'rtasida samarali va ko'p qirrali hamkorlik masalalarini barqarorlashtirish, qolaversa, sohalar birligida integrasiyalashuv tamoyillarini ham yanada rivojlantirish, uzoq davrga mo'ljallangan strategik chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Markaziy Osiyo taraqqiyotida "O'zbekiston o'rnini" – bu O'zbekistonning mintaqaviy taraqqiyotni ta'minlashdagi o'ziga xos imkoniyati, salohiyati va faoliyatidir. Ular quyidagilardan iborat:

Geografik qulay joyda joylashgan O'zbekiston mintaqaning geosiyosiy yadrosi hisoblanadi. Mamlakat maydoni 448,9 ming kv. km ni tashkil qilib, umumiy maydonning beshdan to'rt qismi tekislikdan iborat [2]. Bu hududdan mintaqaning katta daryolari – Amudaryo va Sirdaryo oqib o'tadi. Yurtimizning sharqiy va janubi-sharqiy qismida Tyan-shan, Oloy, Zarafshon, Turkiston va Hisor tog'lari, Farg'ona, Kitob-Shahrisabz, Surxon-Sherobod, Zarafshon, Chirchiq-Ohangaron vodiylari joylashgan bo'lib, aholining asosiy qismi shu hududda yashaydi. Sug'oriladigan yerlardan iborat vodiylar dehqonchilik uchun ancha qulaydir.

Ma'lumki, geosiyosatdagi mavjud xartlend (asosiy o'lka yoki markaziy yer) nazariyasiga ko'ra Markaziy Osiyo yer yuzi, mintaqalarning geosiyosiy yadrosi yoki markazi hisoblanadi. Markaziy Osiyoning xartlendi, geosiyosiy yadrosi esa O'zbekistondir. Shu nuqtai nazardan, mamlakat poytaxti Toshkentga "Sharq darvozasi", deb ta'rif beriladi. S.Safoyev "O'zbekiston Markaziy Osiyoning boshqa davlatlaridan farqli o'laroq, jahon miqyosidagi yoki mintaqaviy yirik davlatlarning birontasi bilan ham bevosita chegaradosh emas. Geosiyosiy jihatdan bu, shubhasiz, ustunlikdir" [3], deb yozadi.

Markaziy Osiyoning o'rta va shimoliy qismida joylashgan O'zbekiston mintaqa davlatlarining hammasi bilan chegaradoshdir. Shimoli-sharqda Qirg'iziston, shimol va shimoli-g'arbda Qozog'iston, janubi-g'arbda Turkmaniston, janubi-sharqda Tojikiston bilan chegaradosh. (1-ilova) Bu esa davlatlarning mavjud imkoniyatlarini mujassamlashtirish, muammolarga qarshi kurashda kuchlarni birlashtirish imkonini beradi.

Bugungi globallashuv sharoitida inson resurslari ham taraqqiyotda asosiy omil bo'lishini kuzatish mumkin. Jumladan, tadqiqotchi Sh.Fayziyev: "O'zbekistonning yetakchi davlatlar qatoridan o'rin egallashida uning demografik holati muhim rol o'ynaydi. Hukumat oldidagi vazifa shu demografik o'sishdan oqilona foydalanish" [7], degan fikrlarni ilgari surgan. Inson omili respublika harbiy qudratida ham namoyon bo'ladi. Davlatimiz qurolli kuchlari son jihatdan ham mintaqada yetakchi. Harbiy kadrlar tayyorlashga ham mamlakatimizda katta e'tibor qaratilgan. Respublikamizda Toshkent oliy umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurti, Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti, Samarqand oliy harbiy avtomobil qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti, Jizzax oliy harbiy aviatsiya bilim yurti, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi maxsus fakultet kabi o'quv yurtlari harbiy sohada malakali kadrlar tayyorlab bermoqda. 2022-yilda O'zbekiston armiyasi harbiy qudrati bo'yicha jahon reytingida 54-o'rinni egalladi. Bu haqda "Global Firepower" portalining "Global Firepower Index-2022" jahon armiyalari reytingida ma'lumot berilgan. Ma'lum qilinishicha, 2021- yilda O'zbekiston armiyasi harbiy qudrati bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchi, jahonda esa 51-o'rinni egalladi. Mamlakat 2022-yilgi reytingda ham Markaziy Osiyo davlatlari ichida birinchilikni saqlab qolgan. Jumladan, Qozog'iston 64-o'rin, Turkmaniston 83, Qirg'iziston 90, Tojikiston 111, Afg'oniston esa 118-o'rinni qayd etgan[8]. Bunday omillar mintaqada xavfsizlik muammosini bartaraf etishda, barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qadim Movarounnahr hududida turli diniy markazlar joylashgan. Ma'lumki, arablar bosqinidan so'ng "ikki daryo oralig'i"ga islom dini kirib kelgan edi. X asrga kelib, bu hududda Buxoro, Samarqand kabi diniy markazlar shakllandi. Hozirgi vaqtda ham ushbu maskanlar islom olamida yuqori mavqeni egallaydi. Xususan, Buxoro islom olamidagi 5 ta sharif shaharlardan biri sifatida tan olingan. Islom dunyosida juda katta mavqega ega silsilai sharifda nomlari qayd etilgan yetti buyuk avliyolarning qabri shu maskandadir. Viloyatda Markaziy Osiyoda dong'i ketgan Mir Arab madrasasi faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Zamonaviy va diniy bilimlarni uyg'unlashtirib tahsil beradigan mintaqada yagona Toshkent islom universiteti faoliyat yuritmoqda. Mintaqa aholisini aksariyati islom diniga e'tiqod qilishi, diniy ekstremizm va fundamentalizm xuruji kuchayayotgan bugungi kunda, bu omil katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda ham bu boradagi tashabbuslar va xayrli amallar davom ettirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutqida ilk bor xalqaro minbardan islom dini ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarini asrab-avaylashga da'vat etishini, Markaziy Osiyo Uyg'onish davrining ko'plab yorqin namoyondalarining islom va jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan bebaho hissasini alohida qayd etdi [9]. "Ana shunday buyuk allomalardan biri Imom Buxoriy o'z ahamiyatiga ko'ra islom dinida Qur'oni karimdan keyingi muqaddas kitob hisoblangan "Sahihi Buxoriy"ning muallifi sifatida butun dunyoda tan olingan. Bu ulug' zotning g'oyat boy merosini asrab-avaylash va o'rganish, ma'rifatiy islom to'g'risidagi ta'limotini keng yoyish maqsadida biz Samarqand shahrida Imom Buxoriy nomidagi Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qildik. Toshkentda tashkil etilayotgan Islom sivilizatsiyasi markazining faoliyati ham shu maqsadga xizmat qiladi", degan fikrlarni ilgari surdi[10].

O'zbekistonning tub aholisini o'zbeklar tashkil qiladi. Shuningdek, yurtimizda qoraqalpoqlar, tojiklar, qozoqlar, qirg'izlar, turkmanlar, tatar, qrim tatar, ozarbayjon, boshqird, slavyanlar kabi 130dan ortiq millat va elat vakillari yashaydi. Ularning milliy haq-huquqlari, urf-odatlarini kamsitilmasligi uchun barcha shart-sharoit yaratilgan. Maktablarda yetti tilda o'qitish yo'lga qo'yilgan, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, madaniyat va ma'naviy boyliklarni taqsimlash masalasida ijtimoiy adolat tamoyiliga bo'ysiniladi. Yetti tilda gazetalar, kitoblar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari va boshqa adabiyotlar nashr qilinmoqda. Ko'pchilik millatlarning ehtiyojlarini hisobga olib televidion ko'rsatuv va radio eshittirishlar yo'lga qo'yilgan. Boshqa millat vakillari davlat va jamoat ishlariga keng jalb qilinmoqda.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. <https://lex.uz/acts/3107036>
2. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi. <https://constitution.uz/uz/pages/aboutuzbekistan>
3. S. Safojev, Markaziy Osiyo geosiyosati. JIDU. 2005. – 30 b.
4. Taksanov A. Integrasiya v stranax Syentralnoy Azii faktorы "za" i "protiv".- "Syentralnaya Aziya i Kavkaz" №1(13), 2001, str-97.
5. X.A. Abduvaliyev, Markaziy Osiyo aholisining demografik vaziyatiga tabiiy-geografik omillarning ta'siri. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 10 | 2022. ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1

6. H.A.Abduvaliyev, A. A. Vahobjonov, K. D. Q.Rahimberdiyeva, (2022). ENCLAVE AND EXCLAVE REGIONS OF CENTRAL ASIA. Scientific progress, 3(1), 87-89.
7. Fayziyev Sh. Geopolitika Uzbekistana. Ijtimoiy fikr inson huquqlari 1999 g.№3-4(7-8) -s-53-57.
8. O'zbekiston armiyasi dunyoda nechanchi o'rinda turishi ma'lum bo'ldi. <https://bugun.uz/2022/01/27/ozbekiston-armiyasi-dunyoda-nechanchi-orinda-turishi-malum-boldi/>
9. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. <http://president.uz/uz/lists/view/1063>.
10. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. <http://president.uz/uz/lists/view/1063>.
11. Hamkorlik yo'lidan. Toshkent oqshomi 1995-yil 6-dekabr. №142.
12. T.Jo'rayev, Milliy davlatchilik: xavfsizlik va barqarorlik. – T.: “Akademiya”, 2007. 42-b.
13. Samarqandda Sharq allomalarining tarixiy merosiga bag'ishlangan xalqaro konferensiya bo'lib o'tadi. <https://tavorix.islamonline.uz/home/xabarlar/989-xabar.html>
14. A.Teshaboyev, O'zbekiston – Turkmaniston: do'stona va ahil qo'shnicilik munosabatlari rivojlanmoqda. <https://yuz.uz/news/ozbekiston--turkmaniston-dostona-va-ahil-qoshnicilik-munosabatlari-rivojlanmoqda>